

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA VOKAL VA XOR SAN'ATI TA'LIMINING AHAMIYATI

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ART PEDAGOGIKA KAFEDRASI
PhD DOTSENTI **A.ASRAQULOVA**
MUSIQA TA'LIMI VA SAN'AT MUTAXASSISLIGI
II-BOSQICH MAGISTRANTI
TURG'UNOVA GULSHODA RAXMONJON QIZI

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida vokal va xor san'ati ta'limining pedagogik, estetik va ijtimoiy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Maqola musiqa ta'limida taxsil oluvchi o'quvchilarning individual va jamoaviy rivojlanishiga ta'siri, vokal-xor mashg'ulotlarining ta'lim jarayonidagi o'rni, ahamiyati qolaversa, pedagogik metodlar va musiqa tarbiyasi orqali yoshlarni estetik madaniyatga yo'naltirish masalalarini yoritadi. Quyidagi maqolada nazariy asoslar, amaliy tadqiqotlar va metodik yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabi, musiqa ta'limi, vokal-xor san'ati, estetik tarbiya, ijodiy salohiyat, pedagogik texnologiyalar, jamoaviy ijro, metod.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the pedagogical, aesthetic, and social significance of vocal and choral art education in general secondary schools. The paper examines the impact of music education on the individual and collective development of students, the role and importance of vocal and choral activities in the educational process, as well as issues related to guiding young people toward aesthetic culture through pedagogical methods and music education. The article analyzes theoretical foundations, practical research, and methodological approaches.

Keywords: school, music education, vocal and choral art, aesthetic education, creative potential, pedagogical technologies, collective performance, method.

Kirish

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning estetik didi, intellektual va ijodkorlik salohiyati va madaniy ongini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Xususan, vokal va xor san'ati – bu nafaqat kuylashni o'rgatish, balki o'quvchilarda jamoaviy hamkorlik, ritm tuyg'usi, tinglash va ifoda madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali ta'lim elementlaridan biridir. Bugungi kunda maktab hayotida musiqa va san'at elementlarini joriy etish – yoshlarni

“komil inson” sifatida tarbiyalash maqsadlariga xizmat qiladi¹. Shu bilan birga, “Ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirish to’g’risida”gi qaror² ham xor san’atining ahamiyatini ta’kidlab, milliy va xalqaro miqyosdagi jamoa ijrochiligi rivojlanishini rag’batlantirmoqda. Tahlillar natijasi shuni ko’rsatadiki, vokal-xor mashg’ulotlar o’quvchilarning hissiy dunyosini boyitadi, ularning ruhiy va ijodiy salohiyatini oshiradi, omma oldida o’zini tuta olishni o’rgatadi. Musiqa ta’limi – bu san’at orqali o’quvchilarning estetik va axloqiy fazilatlarini tarbiyalash jarayoni bo’lib, unda vokal va xor san’ati markaziy o’rin tutadi. Musiqa fanini ta’lim dasturiga kiritish orqali yosh avlodda musiqa madaniyati, ritm va tovush haqidagi bilimlar, dinamika, eshitish qobiliyati ham shakllanadi va jarayon orqali o’quvchilarning hissiyot, eshitish qobiliyati, ritmik tuyg’ularini rivojlantiradi va ularning ijodiy fikrlash darajasini oshiradi.

Vokal san’ati o’quvchilarga faqat kuylash texnikasini o’rgatmay qolmay, balki musiqa asarini ifodalash, ohangni to’g’ri tutish, diksiya va ritmik hissiyotlarni shakllantiradi. Xor san’ati esa jamoaviy ijro madaniyatini oshiradi – bu jarayonda har bir o’quvchi o’z hissasini qo’shib, umumiy musiqiy kompozitsiyani yaratadi. Bunday mashg’ulotlar orqali jamoaviy ishga moslashish, o’zaro hurmat, hamkorlik, qo’shiqlarni umumiy ritmga qarab ijro etish qobiliyati rivojlanadi.

Musiqa madaniyati darslari o’quvchilarda go’zallikni anglash, hissiyotlarni musiqiy orqali ifodalash qobiliyatini shakllantiradi. Musiqa san’ati tafakkurni boyitadi, hissiyotlar va tafakkurni uyg’unlashtiradi, bu esa o’sib kelayotgan yoshlarning ijodiy salohiyatini mustahkamlaydi. Bunday ta’lim jarayoni o’quvchilarning umumiy madaniy darajasini oshiradi va ularni turli xil san’at asarlarini baholashga o’rgatadi. Shuningdek, vokal-xor san’ati tarbiyaviy jarayonda ham jamoaviy muloqot va intizomni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi.

Xor san’ati jamoaviy ijroga asoslangan bo’lib, unda har bir o’quvchi musiqa bilan hamkorlik qiladi. Bu jarayon o’quvchilarda bir-birini tinglash, birgalikda ishlash, mas’uliyatni bo’lishish kabi ijtimoiy ko’nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, jamoaviy ijro yoshlarning o’zaro munosabatlarini mustahkamlaydi, ularni madaniy tadbirlarda faol ishtirok etishga undaydi va shu orqali o’zlarida mavjud bo’lgan musiqiy qobiliyatlarini ham sezishlari mumkin. Musiqa darslarida xor ijrochiligi orqali

¹ Mirzakarimova R. A. «Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limining ahamiyati», *Science and Education*, 2024.

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040 son Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida qarori

yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy va madaniy merosga, jahon musiqa madaniyatiga hurmatni oshirish imkoniyatlari namoyon bo'ladi.³

Umumta'lim maktablarida vokal va xor san'ati ta'limini samarali o'tkazish uchun interaktiv pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Bu usullar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga, ularning individual qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar orqali darslar qiziqarli va ijodkorlikka yo'naltirilgan va bu orqali boshqa fanlarni ham o'zlashtirishlariga ko'makchi bo'ladi. Musiqa darslarida vokal-xor mashg'ulotlari o'quvchilarning yoshiga mos shakllarda tashkil etilishi zarur. Misol uchun o'quvchilarning yoshi, ovoz imkoniyatlari alohida ahamiyat talab etadi. Pedagoglar turli xil repertuarlar, kuylash texnikalari, ovoz sozlash mashqlari, unli harflarni to'g'ri talaffus qilishlari, qomatlarini to'g'ri tutib turishlari ritmik mashqlar va jamoaviy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning malakasini oshiradi. Bu jarayonda baholash tizimi ham ijodiy natijalarga e'tibor qaratgan holda amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, vokal-xor san'ati insonlarda erkinlik, ijodkorlik, mas'uliyat va jamoaviy hamkorlik kabi sifatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Xor jamoalarida ishtirok etish yoshlar va kattalar uchun intellektual va ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Ayniqsa, xor ijrochiligi milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda samarali vosita hisoblanadi. Hozirgi globallashuv davrida xor san'ati jamiyatda milliy va umumbashariy qadriyatlarni birlashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lib bormoqda. Bugungi kunga kelib xor san'ati nafaqat badiiy-estetik rivojlanishga, balki shaxsiy va jamoaviy intellektual salohiyatni yuksaltirishga ham xizmat qilmoqda. Xor jamoalari doirasida shakllanadigan madaniy hamkorlik va ijodiy integratsiya yoshlarning musiqiy didi, nafosati, mas'uliyat hissi va intizomni oshirishda katta rol o'ynaydi.⁴ Xor ijrochiligi, ayniqsa, ijtimoiy hamkorlik va birdamlik ruhini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatlar orqali jamoatchilik ongida yangi qadriyatlarni shakllantirish imkonini beradi. Bunday yosh va ilg'or jamoalarning muvaffaqiyati ularning a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlashga ham bog'liqdir. Xor san'ati milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'usini oshirish bilan birga, insonlarning ijtimoiy mas'uliyatini ham yuksaltirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xor san'ati xalqaro miqyosda ham madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo'lib, turli millat va elatlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni rivojlantirishda faol ishtirok etadi. Bu jihatlar xor ijrochiligini nafaqat san'at sifatida, balki ularning dini, tili, madaniyati, cholg'u asoblari bundan tashqari ijtimoiy hayotni yaxshilashga qaratilgan kuchli vosita sifatida ham qayd etish imkonini beradi. Globallashuv

³ G. Mansurova Xorshunoslik va xhor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti/ o'quv qo'llanma., "Yangi nashr". T.: 2008.

⁴ Sharagiyeva N. Xorshunoslik/ O'quv qo'llanma T.: 2007-y.

jarayonida madaniy xilma-xillik va milliy qadriyatlarni asrab avaylash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan xor san'ati xalqning madaniy birligi va o'ziga xosligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Xor jamoalari ijtimoiy va madaniy hayotda faollikni oshirish, jamoatchilikni birlashtirish va hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Vokal- xor san'ati nafaqat milliy madaniyatni asrab qolish, balki yosh avlodni milliy va xalqaro musiqiy meros davom ettirish bilan tanishtirishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu san'at turi insonlarning musiqiy didni rivojlantirishga, hamkorlik ruhini shakllantirishga va yuksak ma'naviyatli jamiyatni barpo etishga doimo xizmat qiladi.

Xulosa

Quyidagi tadqiqot natijalari vokal-xor san'atining jamiyat hayotidagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Xor san'ati nafaqat ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, balki yuqorida ta'kidlab o'tilganidek insonning jamoaviylik, birdamlik va hamjihatlik kabi ijobiy fazilatlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Uchinchi renessans uyg'onish davrida xor san'ati madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirishda alohida o'rin tutadi. Xor san'ati yosh avlodni estetik tarbiyalashda, ularning musiqa madaniyatini shakllantirishda va intellektual salohiyatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Xor ijrochiligi jarayonida ishtirokchilar o'zaro hamkorlikda ishlash, bir-birini tinglash va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning ijtimoiy va psixologik jihatdan shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xor san'ati milliy o'zlikni anglash, tarixiy va madaniy merosga hurmat bilan yondashish kabi qimmatli fazilatlarini tarbiyalashda ham katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, xor jamoalarida ishtirok etish yoshlar va kattalar uchun vatanparvarlik, mas'uliyat va milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida xor san'atining ijtimoiy hamda madaniy ahamiyatini kuchaytirish, xor jamoalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy talablarga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot xor san'atining pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish va ularning amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Takliflar:

1. XXI- asrda vokal – xor san'atini rivojlantirish va yosh avlodni xor ijrochiligiga jalb qilish uchun yanada ko'proq maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularni malakali ustozlar va talabalar orqali amalga oshirish zarur. Bu xor san'atining ommalashuvi va yoshlar orasida ijodiy muhitni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Ta'lim muassasalarida xor san'ati bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil etish, xor musiqasiga oid qo'shimcha zamonaviy kitoblar video darsliklar va metodik

qo'llanmalarni yaratish lozim. Bu xor ijrochiligini yosh avlod orasida keng targ'ib qilishga katta imkon beradi.

3. Xor jamoalarining ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, turli konsertlar, bellashuvlar tashkil etish ular uchun moddiy texnik bazani mustahkamlash va xor rahbarlarini rag'batlantirish tizimini takomillashtirish muhimdir va bu xor ijrochiligining professional darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040 son Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori

2. Mirzakarimova R. A. «Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limining ahamiyati», *Science and Education*, 2024.

3. G. Mansurova Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti/ o'quv qo'llanma., "Yangi nashr". T.: 2008.

4. R. Tursunov, B. Shonakdiyeva. Xor dirijyorligi/ O'quv qo'llanma T.: 2006-y.

5. O. Vasilchenko Talabalarning musiqiy bilimlarini shakllantirishda pedagog mahorati <https://slib.uz/uz/article/view?id=540>

6. Sharagiyeva N. Xorshunoslik/ O'quv qo'llanma T.: 2007-y.

7. Rasulov, A. Xor san'ati va uning tarbiyaviy ahamiyati. Toshkent: Musiqa nashriyoti. 2019.

8. Karimova, L. Xor ijrochiligida pedagogik yondashuvlar. San'at va madaniyat, 5(28), 65–72. 2021.

9. Usmonov, R. Xor musiqasi va zamonaviy texnologiyalar. O'zbekiston musiqa jurnali,